FEYK AXBOROTNI ANIQLAShDA FAKTChEKING PLATFORMALARINING O‘RNI: ZAMONAVIY VOSITALAR VA TEXNOLOGIK YONDAShUVLAR

Dabilov Azizbek Perdegaliy ulı – *mustaqil tadqiqotchi*
azizbekdabylov@gmail.com
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

РОЛЬ ФАКТЧЕКИНГОВЫХ ПЛАТФОРМ В ВЫЯВЛЕНИИ ФЕЙКОВОЙ ИНФОРМАЦИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Дабылов Азизбек Пердегалиевич – *самостоятельный соискатель*
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

THE ROLE OF FACT-CHECKING PLATFORMS IN DETECTING FAKE INFORMATION: MODERN TOOLS AND TECHNOLOGICAL APPROACHES

Dabilov Azizbek Perdegalievich – *independent researcher*
Karakalpak State University named after Berdakh

Tayanch so‘zlar: feyk axborot, faktcheking, dezinformatsiya, misinformatsiya, verifikatsiya, media savodxonlik, raqamli media, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt, vizual verifikatsiya.

Rezyume. Maqolada zamonaviy raqamli media makonida feyk axborotni aniqlash va unga qarshi kurashishda faktcheking platformalarining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda faktcheking tushunchasining mazmuni, uning jurnalistik verifikatsiya jarayonidagi ahamiyati hamda xalqaro va mahalliy faktcheking platformalarining faoliyat tamoyillari o‘rganiladi. FactCheck.org, PolitiFact kabi xalqaro platformalarning tekshiruv metodlari, shuningdek, Google Lens va TinEye kabi vizual verifikatsiya vositalarining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida faktcheking faqat tayyor yolg‘on xabarni rad etishdan iborat emasligi, balki da’voni aniqlash, birlamchi manbani izlash, dalillarni solishtirish, vizual materiallarning kelib chiqishi va kontekstini tekshirish kabi bosqichlarni o‘z ichiga olishi asoslanadi. Shuningdek, O‘zbekistondagi faktcheking amaliyotining rivojlanish holati va qoraqalpoq tilidagi raqamli axborot makonida faktcheking imkoniyatlarini kengaytirish zarurati ko‘rib chiqiladi. Maqola yakunida qoraqalpoq tilidagi axborot muhitida feyk xabarlarni aniqlashga ixtisoslashgan faktcheking platformasini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Ключевые слова: фейковая информация, фактчекинг, дезинформация, мисинформация, верификация, медиаграмотность, цифровые медиа, социальные сети, искусственный интеллект, визуальная верификация.

Резюме. В статье анализируется роль платформ фактчекинга в выявлении и противодействии фейковой информации в современном цифровом медиапространстве. В исследовании рассматривается содержание понятия «фактчекинг», его значение в процессе журналистской верификации, а также основные принципы деятельности международных и локальных платформ по проверке фактов. Анализируются методы проверки, используемые такими международными платформами, как FactCheck.org и PolitiFact, а также возможности визуальных инструментов верификации, включая Google Lens и TinEye. Обосновывается, что фактчекинг не ограничивается опровержением уже распространённой ложной информации, а включает комплекс последовательных этапов: выявление проверяемого утверждения, поиск первоисточника, сопоставление доказательств, проверку происхождения визуальных материалов и анализ их контекста. Кроме того, рассматривается состояние развития фактчекинга в Узбекистане и обосновывается необходимость расширения возможностей проверки информации в цифровом медиапространстве на каракалпакском языке. В заключительной части статьи предлагаются направления развития специализированной фактчекинговой платформы, ориентированной на выявление и проверку фейковой информации в каракалпакоязычном информационном пространстве.

Key words: fake information, fact-checking, disinformation, misinformation, verification, media literacy, digital media, social networks, artificial intelligence, visual verification.

Summary. The article analyzes the role of fact-checking platforms in detecting and combating fake information in the contemporary digital media environment. The study examines the concept of fact-checking, its significance in the process of journalistic verification, and the operating principles of international and local fact-checking platforms. The verification methods employed by international platforms such as FactCheck.org and PolitiFact, as well as the capabilities of visual verification tools including Google Lens and TinEye, are analyzed. The study demonstrates that fact-checking is not limited to debunking already disseminated false information but involves a series of interconnected stages, including identifying verifiable claims, locating primary sources, comparing evidence, verifying the origin of visual materials, and analyzing their context. The article also examines the current development of fact-checking practices in Uzbekistan and substantiates the need to expand fact-checking capabilities within the Karakalpak-language digital information environment. Finally, the article proposes directions for developing a specialized fact-checking platform aimed at detecting and verifying fake information in the Karakalpak-language information space.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi axborotni yaratish, tarqatish va iste’mol qilish jarayonlarini tubdan o‘zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, bloglar va boshqa raqamli platformalar axborot almashinuvining tezligi va ko‘lamini sezilarli darajada oshirdi. Shu bilan birga, mazkur muhit ishonchsiz, noto‘g‘ri va qasddan yaratilgan chalg‘ituvchi axborotlarning keng auditoriyaga tez yetib borishi uchun ham qulay sharoit yaratmoqda.

UNESCO tomonidan tayyorlangan “Journalism, Fake News & Disinformation” qo‘llanmasida raqamli texnologiyalar va ijtimoiy platformalarning noto‘g‘ri hamda chalg‘ituvchi axborot tarqalishidagi roli alohida ko‘rib

chiqilgan. Qo‘llanmada jurnalistlar va media mutaxassislari uchun faktcheking, ijtimoiy tarmoqlardagi materiallarni verifikatsiya qilish va media savodxonlik muhim vositalar sifatida ko‘rsatiladi [1:44-55].

Shu nuqtayi nazardan, feyk axborotga qarshi kurashning muhim yo‘nalishlaridan biri – faktcheking, ya’ni muayyan da’vo yoki xabarda keltirilgan faktlarning ishonchliligini dalillar asosida tekshirish jarayonidir. Faktchekingning asosiy maqsadi axborotni shunchaki “rost” yoki “yolg‘on” deb baholash emas, balki xabarning manbasi, dalillari, konteksti va faktik asoslarini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqolaning maqsadi raqamli media makonida feyk axborotni aniqlashda faktcheking platformalari va zamonaviy verifikatsiya vositalarining o‘rnini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

faktcheking tushunchasi va uning jurnalistik faoliyatdagi o‘rnini aniqlash;

xalqaro faktcheking platformalarining metodologiyasini tahlil qilish;

matn, fotosurat va video materiallarni tekshirishning zamonaviy vositalarini ko‘rib chiqish;

O‘zbekistondagi faktcheking amaliyotini o‘rganish;

qoraqalpoq tilidagi raqamli axborot makonida faktchekingni rivojlantirish istiqbollarini aniqlash.

Faktcheking tushunchasi va uning ilmiy-amaliy mohiyati. Faktcheking – axborotda ilgari surilgan tekshiriladigan da’volarni ishonchli dalillar va manbalar asosida verifikatsiya qilish jarayonidir. Uning asosiy vazifasi xabarda keltirilgan ma’lumotlarning haqiqatga qanchalik mos kelishini aniqlash, noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarni aniqlash hamda auditoriyaga tekshirilgan axborotni taqdim etishdan iborat.

Faktchekingni oddiy axborot qidirish jarayonidan farqlash lozim. Oddiy qidiruvda foydalanuvchi kerakli ma’lumotni topishga intilsa, faktchekingda asosiy e’tibor da’voning daliliy asosini aniqlashga qaratiladi. Shu sababli faktchekingda manbaning ishonchliligi, ma’lumotning birlamchi manbasi, vaqt va makon konteksti, statistik ma’lumotlarning kelib chiqishi hamda boshqa mustaqil manbalar bilan mosligi tekshiriladi.

FactCheck.org o‘zining metodologiyasida tekshiruv jarayonini bir necha bosqichga ajratadi. Platforma avvalo tekshirilishi mumkin bo‘lgan da’volarni aniqlaydi, keyin da’vo egasidan dalillarni so‘raydi va zarur hollarda mustaqil tadqiqot olib boradi. Tashkilot birlamchi manbalardan, rasmiy ma’lumotlardan va tegishli ekspertlardan foydalanishini ta’kidlaydi. Tayyorlangan material esa nashrdan oldin bir necha bosqichda tahrir va faktik tekshiruvdan o‘tkaziladi [2].

Demak, faktcheking jarayonining ilmiy-amaliy qiymati uning dalilga asoslanganligi va manba shaffofligi bilan belgilanadi.

Xalqaro faktcheking platformalari va ularning metodlari. Raqamli media makonida faktcheking faoliyatining rivojlanishi natijasida turli yo‘nalishlarga ixtisoslashgan platformalar shakllangan. Ular orasida FactCheck.org va PolitiFact kabi platformalar alohida o‘rin egallaydi.

FactCheck.org siyosiy bayonotlar va jamoatchilik uchun muhim bo‘lgan faktik da’volarni tekshirishga ixtisoslashgan platformalardan biridir. Uning metodologiyasida mustaqil va birlamchi manbalarga tayanish, da’voni dalillar bilan taqqoslash va tekshiruv natijalarini auditoriyaga tushunarli shaklda yetkazish tamoyillari mavjud [2].

PolitiFact esa siyosiy bayonotlarni mustaqil faktcheking qilish bilan mashhur platformalardan biridir. Uning metodologiyasi mustaqillik, shaffoflik, xolislik va chuqur tadqiqot olib borish tamoyillariga asoslanadi. Platforma siyosatchilar va boshqa jamoat arboblarining tekshirilishi mumkin bo‘lgan da’volarini baholashda dalillar va mavjud faktlardan foydalanadi [3].

Mazkur platformalar faoliyatining umumiy jihati shundaki, faktcheking natijasi faqat tekshiruvchining shaxsiy fikriga emas, balki tekshiriladigan dalillar tizimiga asoslanadi. Bu esa faktchekingni oddiy “fikr bildirish”dan ajratib turuvchi asosiy mezondir.

Feyk axborotni aniqlashda zamonaviy texnologik vositalar. Raqamli axborot oqimining hajmi ortib borishi faktcheking jarayonida texnologik vositalardan foydalanishni tobora muhimlashtirmoqda. Bunday vositalar jurnalist yoki tadqiqotchining o‘rnini to‘liq egallamaydi, biroq axborotning manbasini aniqlash va dastlabki verifikatsiya jarayonini tezlashtirishga yordam beradi.

Qidiruv tizimlari orqali verifikatsiya. Feyk xabarni tekshirishning dastlabki bosqichlaridan biri uning asosiy da’vosini boshqa mustaqil manbalardan izlashdir. Bunda qidiruv tizimlaridan foydalanib, xabarda keltirilgan ma’lumotning boshqa ishonchli manbalarda mavjudligi tekshiriladi.

Biroq qidiruv natijasida bir xil xabarning ko‘plab saytlarda uchrashi uning avtomatik ravishda haqiqat ekanini anglatmaydi. Birlamchi manba aniqlanishi va ikkilamchi manbalarning aynan shu manbaga tayanayotgani tekshirilishi kerak. Shu jihatdan faktchekingda manbalar sonidan ko‘ra, manbaning sifati va birlamchiligi muhimroq hisoblanadi.

Fotosuratlarni tekshirish. Ijtimoiy tarmoqlarda feyk axborot ko‘pincha vizual materiallar orqali tarqaladi. Eski fotosuratni yangi voqea sifatida taqdim etish, boshqa davlat yoki hududdagi tasvirni mahalliy hodisa sifatida ko‘rsatish yoki fotosuratni tahrirlab uning mazmunini o‘zgartirish keng tarqalgan manipu-lyatsiya shakllaridan biridir.

Bunday holatlarni aniqlashda Google Lens kabi vizual qidiruv vositalaridan foydalanish mumkin. Google ma’lumotlariga ko‘ra, Lens orqali yuklangan tasvir bo‘yicha o‘xshash rasmlar va tasvir joylashtirilgan veb-saytlarni aniqlash mumkin [4].

TinEye ham reverse image search, ya’ni tasvir bo‘yicha teskari qidiruv imkonini beruvchi vositadir. Platforma tasvirning internetdagi nusxalarini, o‘zgartirilgan yoki kesilgan variantlarini topishga yordam beradi. TinEye tasvirni kalit so‘z yoki metadata orqali emas, balki tasvirni tanib olish texnologiyasi asosida solishtiradi [5]. Shu sababli fotosuratni faktcheking qilishda quyidagi ketma-ketlik samarali hisoblanadi: tasvirni topish → uning dastlabki manbasini aniqlash → sanasini tekshirish → joylashuvini aniqlash → yangi xabardagi kontekst bilan solishtirish.

Video materiallarni verifikatsiya qilish. Video materiallarning tekshirilishi fotosuratlarga nisbatan murakkabroq jarayon hisoblanadi. Chunki videoning o‘zi haqiqiy bo‘lishi mumkin, biroq uning mazmuni noto‘g‘ri kontekstda taqdim etilishi ehtimoli mavjud.

Masalan, bir necha yil avval olingan video yangi voqea sifatida tarqatilishi yoki boshqa hududda sodir bo‘lgan

hodisa mahalliy voqea sifatida ko‘rsatilishi mumkin. Shu sababli video verifikatsiyasida uning birinchi joylashtirilgan manbasi, e’lon qilingan sanasi, voqea joyi, tasvirdagi obyektlar va boshqa mustaqil dalillar tekshirilishi zarur.

UNESCO faktcheking bo‘yicha qo‘llanmasida ham ijtimoiy tarmoqlardagi materiallarni verifikatsiya qilish zamonaviy jurnalistika uchun muhim ko‘nikmalardan biri sifatida ko‘rsatiladi [1:57-71].

Faktchekingda inson va texnologiya hamkorligi. Faktcheking jarayonini to‘liq avtomatlashtirish masalasi bugungi kunda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish texnologiyalari katta hajmdagi axborot oqimini dastlabki bosqichda saralash, takrorlanuvchi narrativlarni aniqlash, matnlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni topish va vizual materiallarni tahlil qilishda qo‘llanishi mumkin.

Biroq texnologik vosita tomonidan aniqlangan “shubhali” kontentni avtomatik ravishda “yolg‘on” deb belgilash ilmiy va jurnalistik jihatdan xavfli. Chunki xabarning haqqoniyligi ko‘pincha kontekst, vaqt, manba va dalillarning o‘zaro munosabatiga bog‘liq bo‘ladi.

Shu sababli eng maqbul yondashuv inson va texnologiya hamkorligi hisoblanadi. Texnologiya katta hajmdagi ma’lumotlarni dastlabki saralash va tahlil qilishni tezlashtirishi, jurnalist yoki faktcheker esa yakuniy xulosani dalillar asosida chiqarishi kerak.

O‘zbekistonda faktcheking amaliyoti. O‘zbekistonda raqamli media rivojlanishi bilan bir qatorda axborotning haqqoniyligini tekshirishga yo‘nal-tirilgan tashabbuslar ham shakllanmoqda. Xususan, Factcheck.uz o‘zbek tilidagi faktcheking resurslaridan biri sifatida faoliyat yuritadi. Platformada turli ijtimoiy mavzulardagi xabarlar va da’volar tekshirilib, ularning faktik asoslari tahlil qilinadi [6].

O‘zbek tilidagi faktcheking resurslarining mavjudligi milliy axborot makonida muhim ahamiyatga ega. Chunki xalqaro faktcheking platformalarining katta qismi ingliz tilida faoliyat yuritadi va ularning metodologiyasi hamda kontenti mahalliy auditoriya uchun har doim ham qulay bo‘lavermaydi.

Shu bilan birga, faktcheking platformasining samaradorligi faqat tekshirilgan materiallar soni bilan emas, balki manba shaffofligi, dalillarga havola berish, tekshiruv metodining ochiqligi, auditoriya bilan aloqa va muntazamlik kabi mezonlar asosida baholanishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda faktcheking ekotizimini rivojlantirish uchun tekshiruv natijalarining birlamchi manbalarga bog‘lanishi, metodologiyaning ochiq bayon qilinishi va foydalanuvchilarga axborotni mustaqil tekshirish imkonini beruvchi vositalarning kengaytirilishi muhimdir.

Qoraqalpoq tilidagi axborot makonida faktcheking istiqbollari. Feyk axborotga qarshi kurash masalasi Qoraqalpog‘istonning raqamli axborot makoni uchun ham dolzarbdir. Ayniqsa, qoraqalpoq tilidagi axborot resurslari va faktcheking materiallarining cheklanganligi mahalliy auditoriyaning ishonchli axborotga bo‘lgan ehtiyojini yanada oshiradi.

Qoraqalpoq tilidagi faktcheking platformasi nafaqat tayyor feyk xabarlarni rad etishi, balki foydalanuvchilarga axborotni mustaqil tekshirish ko‘nikmalarini ham berishi kerak. Bunday platformaning asosiy funksiyalariga shubhali xabarlarni qabul qilish, matnli da’volarni tekshirish, fotosuratlarning dastlabki manbasini aniqlash, videolarning sanasi va kontekstini tekshirish hamda tekshiruv natijalarini qoraqalpoq tilida ochiq taqdim etish kirishi mumkin.

Bundan tashqari, platformada jurnalistlar, blogerlar va talabalar uchun faktcheking bo‘yicha metodik qo‘llanmalar va o‘quv materiallarini joylashtirish maqsadga muvofiq. Bu faktchekingni faqat professional jurnalistlar faoliyatiga xos jarayon emas, balki keng auditoriyaning media savodxonligini oshiruvchi amaliy mexanizmga aylantiradi.

Qoraqalpoq tilidagi bunday platformani rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, qoraqalpoq tilidagi shubhali matnlarni dastlabki aniqlash, takroriy xabarlarni guruhlash, vizual materiallarni teskari qidiruvga yo‘naltirish va tekshiruv uchun ustuvor da’volarni saralash kabi funksiyalarni joriy etish mumkin.

Biroq bunday tizimda avtomatik algoritmning yakuniy qaror chiqaruvchi vosita emas, balki faktcheker faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ishlashi maqsadga muvofiq. Chunki tilning kontekstual xususiyatlari, mahalliy nomlar, sheva va madaniy kontekstlar avtomatik tizimlar uchun qo‘shimcha murakkablik tug‘dirishi mumkin.

Tahlil natijalari faktchekingni feyk axborotga qarshi kurashning alohida vositasi sifatida emas, balki kengroq axborot verifikatsiyasi ekotizimining bir qismi sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Faktcheking platformalari uchta asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, ular shubhali da’volarni aniqlaydi va tekshiradi. Ikkinchidan, tekshiruv natijasini dalillar bilan asoslab, auditoriyaga taqdim etadi. Uchinchidan, foydalanuvchilarning axborotni tanqidiy qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, faktchekingning samaradorligi uning tezkorligi va ishonchliligi o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq. Feyk xabar bir necha daqiqada minglab foydalanuvchilarga yetib borishi mumkin, biroq uni sifatli tekshirish ko‘proq vaqt talab qiladi. Shu sababli zamonaviy faktcheking tizimlarida avtomatlashtirilgan qidiruv, tasvirni tanib olish va ma’lumotlarni guruhlash kabi texnologiyalar inson faktchekerining ishini tezlashtirishi mumkin.

Demak, kelajakdagi faktcheking modeli “inson+ texnologiya+ochiq manbalar+media savodxonlik” tamoyili asosida shakllanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Feyk axborotning raqamli media makonida tez tarqalishi uning aniqlanishi va verifikatsiyasini zamonaviy jurnalistikaning muhim vazifalaridan biriga aylantirmoqda. Ushbu jarayonda faktcheking platformalari axborotning haqqoniyligini tekshirish, yolg‘on yoki chalg‘ituvchi da’volarni aniqlash va auditoriyaga ishonchli ma’lumot taqdim etishda muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, samarali faktcheking faqat bitta qidiruv vositasi yoki avtomatik algoritmdan foydalanish bilan cheklanmaydi. U da’voni aniqlash, birlamchi manbani topish, mustaqil dalillarni taqqoslash, fotosurat va videolarning kelib chiqishi hamda kontekstini tekshirish kabi o‘zaro bog‘liq bosqichlardan tashkil topadi.

Google Lens va TinEye kabi vizual qidiruv vositalari fotosuratlarning manbasini aniqlashda, FactCheck.org va PolitiFact kabi platformalar esa tizimli jurnalistik faktcheking metodologiyasini shakllantirishda muhim tajriba beradi. Biroq texnologik vositalar faktchekerning o‘rnini to‘liq bosa olmaydi. Ayniqsa, murakkab siyosiy, ijtimoiy va madaniy kontekstga ega xabarlarni baholashda insonning

tanqidiy fikrlashi va professional jurnalistik yondashuvi zarur.

O‘zbekiston sharoitida faktchekingni rivojlantirish uchun mahalliy tillardagi kontentni ko‘paytirish, manbalar shaffofligini ta’minlash, jurnalistlar va blogerlarning verifikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni faktcheking jarayoniga integratsiya qilish muhimdir.

Qoraqalpoq tilidagi raqamli axborot makonida esa faktcheking platformasini rivojlantirish alohida istiqbolli yo‘nalish sifatida baholanishi mumkin. Bunday platforma nafaqat feyk xabarlarni aniqlashi va rad etishi, balki qoraqalpoq tilida axborotni tekshirish madaniyatini shakllantirishi, mahalliy jurnalistika sifatini oshirishi va raqamli axborot xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Ireton C., Posetti J. (Eds.). Journalism, ‘Fake News’ & Disinformation: Handbook for Journalism Education and Training. UNESCO. 2018.

2. Fact Check.org. Our Process. Annenberg Public Policy Center.

3. Sanders K. The Principles of the Truth-O-Meter: PolitiFact’s methodology for independent fact-checking. PolitiFact. 2018.

4. Google. Search with an image on Google. Google Search Help.

5. TinEye. Reverse Image Search. TinEye.

6. TinEye. What is TinEye? TinEye Help.

7. Factcheck.uz. Faktcheking materiallari va platforma resurslari. Factcheck.uz.